



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI  
RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO‘MITASI**

**SAMARQAND VETERINARIYA MEDITSINASI INSTITUTI**

**BUYRUQ**

« 17 » 11 2021 yil

№ 521

Samarqand sh.

**O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va  
chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi  
raisining 2021-yil 26-oktyabrdagi**

**“Sohada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid  
tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi  
115-i/ch-buyrug‘i to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining 2021-yil 26-oktyabrdagi “Sohada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 115-i/ch-buyrug‘i, “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son, “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-ahloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2016-yil 2-martdagi 62-son qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisining 2021-yil 26-oktyabrdagi “Sohada korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 115-i/ch-buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Institutda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom 3-ilovaga muvofiq;

Institutga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Institut, filiallar, texnikumlar va litsey xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

Institut, filiallar, texnikumlar va litseyda kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnama 6-ilovaga muvofiq;

Institut, filiallar, texnikumlar va litseyga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnama 7-ilovaga muvofiq;

Institut, filiallar, texnikumlar va litseyda Korrupsiyaga qarshi tartib taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslibiyoti 8-ilovaga muvofiq;

Institut, filiallar, texnikumlar va litseyda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom 9-ilovaga;

Institut, filiallar, texnikumlar va litsey xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur buyruqni o'rnatilgan tartibda soha prorektorlari, barcha bo'lim boshliqlari va fakultet dekanlariga yetkazilishini ta'minlash devonxona mudirasi zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor



X. Yunusov

1999

INSTITUT  
SAMIQOND ALEKRIYAKIYA MEDITSINSI  
OGIA AV O'KLA MAXSUS TAJMIA VAZIRLICI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

